

UDK:619:636.31:616.981.49:616-002

QO'ZILAR SALMONELLYOZINING EPIZOOTOLOGIYASI VA DIAGNOSTIKASI.

(Adabiyotlar tahlili asosida)

Islomova O.P. – assistent

Abdullayeva Sh.M. – talaba

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada salmonellyozni rivojlanish tarixi, tarqalishi, patogenezini, kechishi, klinik belgilarini va diagnostika usullarini keltirilgan.

Kalit so'zlar: bakteriya, diareya, diagnoz, Salmonella, spora, Gram, kapsula.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda chorvachilik sohasi jadal rivojlanib, aholini sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashda hayvonlar orasida uchraydigan yuqumli kasalliklarni aniqlash va o'z vaqtida diagnoz qo'yish muhim hisoblanadi. Jumladan chorvachilik xo'jaliklarida qo'ylar orasida ba'zi yuqumli kasallik tez-tez qayd etilmoqda. Shunday kasalliklardan biri yangi tug'ilgan qo'zilarlarning salmonellyoz kasalligi bo'lib, ushbu kasallik qo'zilar orasida salmoqli o'rinni egallaydi hamda chorvachilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazib kelmoqda. Kasallikdan keladigan iqtisodiy zararining kattaligi sababli, ushbu kasallikni o'rganish, diagnoz qo'yish, oldini olish va qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Adabiyot ma'lumotlari. Salmonellyoz qishloq xo'jalik hayvonlari va parradalarning yuqumli kasalligi bo'lib, o'tkir kechganda isitma va diareya surunkali kechganda esa ko'pincha o'pkani zararlashi bilan xarakterlanadi. 1885 yilda Salmon va Smit o'lgan cho'chqalardan qo'zg'atuvchini ajratgan. 1934 yilda bakteriyani uning nomi bilan salmonella kasallik esa salmonellyoz deb atalgan. Yosh hayvonlar salmonellyozi iqlim va joylashishidan qat'iy nazar dunyoning barcha mamlakatlarida uchraydi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 350-b.].

Salmonellalar *Enterobacteriaceae* oilasiga va salmonella avlodiga mansub grammanfiy, tayoqchasimon, uchlari qayrilgan, 2 – 4 mkm kattalikdagi bakteriyalar. Spora va kapsula hosil qilmaydi, bittadan, ba'zan ikkitadan joylashadi. *S.pullorum* dan tashqari, barchasi harkatchan (peritrixlar) dir [2; 286-b., 3; 228-b., 4; 5; 432-b.].

Kasallik qo'zg'atuvchisining asosiy manbasi- kasal hayvonlar, kasallikdan sog'aygan klinik sog'lom bakteriya tashuvchilardir. Hayvonlar asosan aerogen va alimantar yo'llar bilan zararlanaadi [7; 87-b.].

Yashirin davr 1-3 kungacha. Ayrim hollarda 7 kungacha davom etadi. U hayvonning chidamliligiga, qo'zg'atuvchining miqdoriga, virulentligiga, kirish yo'liga va tashqi muhitga bog'liq.

Qo'zilarida kasallik hayotining 1-kunlarida juda kuchli lohaslik bilan asosan o'tkir septitsemiya holida kechadi, Ular onasini emmaydi, faqat yotadi, harorati 41-42°C ko'tariladi, og'ir nafas oladi, puls tezlashadi, diareya, fekalida qon kuzatiladi va 2-5 kunda o'ladi.

2-3 haftalik qo'zilar pnevmoniya va artrit ko'rinishida namoyon bo'ladi. Yo'tal og'riqli, burundan shilliq-yiringli suyuqlik oqadi. Tuzalgan qo'zilar yaxshi o'smaydi.

Kasallik o'tkir va yarim o'tkir kechganda salmonellalar avval ichakda rivojlanadi, keyin ichak vorsinkalari orqali ichak limfa tugunlariga o'tadi va bakteriyalar intensiv rivojlanadi va birinchi yallig'lanish jarayonlari rivojlanadi. Bundan keyin bakteriyalar umumiy limfa va qon oqimiga tushib bakteremiya paydo bo'ladi, parenximatoz diffuziya (salmonellalarning limfa tugunlari, o'pka, ba'zan ilikda joylashib, rivojlanishi) bilan davom etadi. Bo'g'oz hayvonlarda (qo'y) salmonellalar asosan bachadonida joylashib unda va plasentada yallig'lanish jarayonlarini, homilada sepsis, homila tashlashni paydo qiladi [8; 450-456-b.].

Salmonellalar ichak massasi, tug'ish yo'llari (homila tashlash va undan keyingi davrda), burun shilimshig'i bilan (pnevmoniyada) ko'p miqdorda ajraladi. Bu davrda antitelolar ko'payib, RES- retikuloendotelial sistema birdan faollashadi.

Salmonellaning ko'payishi natijasida juda ko'p biomassa to'planadi va bakteriyalarning parchalanishi bilan endotoksin ajraladi. Endotoksin organlar to'qimasida qator yallig'lanish, distrofik, nekrobiotik va granulomatoz o'zgarishlar, qon quyilishlar paydo qiladi [9; 17-22-b., 10; 350-b.].

Klinik sog'aygandan keyin hayvonlar bir necha hafta, oylar davomida salmonella tashuvchi bo'lib qoladilar.

Laboratoriyaga tekshirish uchun yangi o'lgan hayvon jasadi yoki ilik suyagi, jigar bo'lakchasi, o't xaltasi bilan, buyrak, yurak; kasal hayvondan qon, burun ajratmasi, tezagi; tashlangan homila plasentasi, ajratmalari yoki homilaning oshqozoni va parenximatoz organlari yuboriladi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 56-60-b.].

Laboratoriyada mikroskopiya, bakteriologiya, serologiya, zarur bo'lganda biosinov qo'yish usullarida tekshiriladi. Laboratoriyada tekshirish muddati 5-6 kun [6; 34-b., 1; 285-b.].

Mikroskopik tekshirish uchun laboratoriyada Patmaterialdan surtmalar tayyorlab, Gram usulda bo'yaladi.

GPA, GAB va differensial diagnostik muhitlar endo, levin, Vismut sulfit agarlardan birortasiga ekiladi. Salmonellalar uchun harakterli belgili kultura ajratilsa predmet oynachasida agglyutinasiya reaksiyasi quyiladi. Avval polivalentli O-zardoblar bilan, keyin monoreseptorli H- zardoblari bilan [7; 87-b.].

Bakteriologik tekshirish. Kasal hayvonlardan qon gemokultura usulida tekshiriladi. Buning uchun qonni bakteremiya davrida (isitmasi ko'tarilganda) va salmonellyoz yarimo'tkir kechganda olgan ma'qul. Bo'yintutruq venasidan olingan 5-10 ml qon 5-6 probirka yoki 2-3 flakon GPB ga va 10-20% li o't suyuqligiga yoki yarimsuyuq agarga ekiladi. Keyin undan yuqorida ko'rsatilgan zich oziq muhitlarga ekiladi. Endo muhitida salmonellalar esherxiyalardan farqli ravishda rangsiz koloniyalar hosil qiladi (laktozani parchalamaydi), vismusulfit agarda (S guruhidan tashqari) qora rangli koloniyalar o'sadi. Salmonellalarga xos, laktoza va saharozani parchalamaydigan, indol hosil qilmaydigan kulturani tomchili agglyutinasiya reaksiyasida tekshiriladi [1; 283-b., 7; 871-b., 10; 376-b.].

Fagotiplash. Diagnostik maqsadda ko'proq guruhli va tipli faglar ishlatiladi. Ikkita probirkada suyuq oziq muhitga salmonellaning sutkalik kulturasi ekiladi, bittasiga 3-4 tomchi fag qo'shiladi, ikkinchisi nazorat uchun qoldiriladi. 12-24 soatdan keyin fagli probirkada bakteriyalar lizisga uchrab, suyuqlik tiniq bo'ladi. Zich oziq muhitda bakteriyalar yuzaga bir tyokis ekiladi va bir tomchi fag tomdiriladi. Ikkinchi kuni fag tomchisi bo'lgan joyda o'sish bo'lmaydi. Biosinov zarur hollarda quyiladi. Buning uchun 18g massali oq sichqonlar terisi ostiga kultura suspenziyasi (50-100 mln mikroob tanachalari 1ml da) 0,2-0,3 ml yuboriladi. Ijobiy natijada 3-10 kunda sichqonlar o'ladi [11; 136-b.]. Laboratoriyada tekshirish muddati 5-6 kun.

Xulosa: Salonelyoz qo'zilarida mahsuldorligi pasayishi, homila tashlash, hayotchanligi past bo'lgan qo'zilar tug'ilishi va yosh qo'zilarida o'lim sonining ortishi bilan chorvachilikka katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Shu sababli kasallikni xususiyatlari, diagnostikasi, va maxsus profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бакулин В.А. "Болезни птиц", учебник, Санкт-Петербург.ВНИВИП, 2006.-С. 281-284
2. Бакулин В.А. Сальмонеллез - паратиф птиц. //В кн. Болезни птиц. - М., 2007. -С. 286-295.
3. Бессарабов Б.Ф., Мельникова И.И., Сушкова Н.К., Садчиков С.Ю. Болезни птиц. - СПб.: Лань, 2009. 220-229 с.
4. Давлатов Р.Б., Салимов Х.С., Худжамшукуров А.Н. Паррандалар касалликлари //Ўқув қўлланма. Самарқанд 2018 - Б. 138-147.
5. Колычев Н.М., Госманов Р.Г. Ветеринарная микробиология и иммунология. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: КолосС, 2003. - 432 с.
6. Куриленко А.Н., Пименов Н.В., Ленев С.В., Малахов Ю.Н., Яковлев С.С. Рекомендации по диагностике, профилактике и ликвидации сальмонеллеза кур. - М.: МСХ/ МГАВМиБ, 2002. - 34 с.
7. Машенко А.С, Алутин В.В., Тутов СА. Эффективная и своевременная диагностика сальмонеллезов - гарантия безопасности // Междунар. вет. конгресс по птицеводству, 21-23 марта 2006 г. - М., 2006. - С. 87-88.
8. Салимов Х.С., Қамбаров А.А. Эпизоотология // Дарслик. Тошкент 2016 Б. 450-456.
9. Салимов Х.С., Элмуродов Б.А., Давлатов Р.Б., Қамбаров А.А., Тоиров Ж. Ёш ҳайвонларни ва жўжаларни колисептицемиядан асрайлик // «Зооветеринария», 2014. - №9. - Б. 17-22.
10. Самуйленко А.Я. Инфекционная патология животных// - М.:РАСХН, 2009.-341-376.
11. Чиркова И.В. Биологические свойства бактериофагов к *Salmonella typhimurium* и их применение в борьбе с сальмонеллезом голубей: Дисс. канд. биол. наук / ФГОУ ВПО МГАВМиБ. - М., 2008. - 136 с.